"ТАСДИКЛАЙМАН"

Жиззах вилояти Зомин тумани ТТБ
бошлиғи _______ Р.Ибрагимов
2022 й. "___" _______"

**Жиззах вилояти Зомин тумани тиббиёт бирлашмасининг МСКТ ва Ангиография хоналарини жорий таъмирлаш учун ишчи лойиҳани (ИЛ) ишлаб чиқиш учун**

**ТОПШИРИҚ**

| Т/р | Асосий маълумотлар ва талаблар номи | Асосий маълумотлар ваталаблар мазмуни |
|---|---|---|
| 1. | Объкт номи | **Жиззах вилояти Зомин ТТБ нинг МСКТ ва Ангиография хоналарини жорий таъмирлаш** |
| 3 | Буюртмачи | **Жиззах вилояти Зомин тумани ТТБ** |
| 3. | Лойихачи | "Djizak Piramide Construction" МЧЖ |
| 4 . | Пудратчи ташкилот | Ички танлов асосида |
| 5. | Қурилиш тури | **жорий таъмирлаш** |
| 6. | Асос | **Жиззах вилояти Зомин тумани ТТБ** 15.11.2022 йилдаги №11-15 хати |
| 7. | Асосий лойихалаш ишлари | Газ ва қаттиқ ёкилғига мулжалланган 100 кВт лик модульний котель ўрнатилсин, иситиш ва шамоллатиш тизими лойихалаштирилсин ва колган барча иш турлари буйича нуксонлар далолатнома асосида смета хужжатлари тайёрлансин. |
| 8. | Объектнинг жойлашуви ва манзили | Жиззах вилояти Зомин тумани |
| 9. | Молиялаштириш манбаи | Махаллий бюджет |
| 10. | Лойиха ишлари учун дастлабки маълумотлар | Нуксонлар далолатномаси |
| 11 | Талаблар | Иш хаки 12 % ижтимоий сугуртаси билан, ККС 15%,пудратчининг бошка харажатлари Жиззах вилояти буйича хисобланади.Лойиха смета хужжатларини ишлаб чикиш ва шахарсозлик хужжатлари экспертизасидан утказиш. |
| 12 | Буюртмачига такдим этиладиган хужжатлар | Лойиха смета хужжатлари 3-х нус. Когоз ва электрон куринишда ПДФ ва (EXCEL) |

Бош мутахасис: Юлдошев А. _______

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QURILISH VAZIRLIGI
«SHAHARSOZLIK HUJJATLARI EKSPERTIZASI»
DAVLAT UNITAR KORXONASI

Жиззах вилояти

130100, Jizzax shahri, Sh.Rashidov koʻchasi, 1-uy, Tel. +99878 771-70-15, Faks: +99878 771-70-15, E-mail: jizzah_expertiza@mail.ru www.ekspertiza.mc.uz www.mc.uz

Holati: Ijobiy
Direktor: Kulmuradov Yusup Baxriyevich
Sana:25-11-2022 yil

**Yig'ma ekspert xulosasi № 77596**

**Obyekt nomi** «Smeta xujjatlari bo'yicha: Jizzax viloyati Zomin tuman tibbiyot birlashmasining MSKT va Angiografiya xonalarini joriy ta'mirlash»

**Buyurtmachi –** Jizzax viloyati Zomin tuman tibbiyot birlashmasi.
**Bosh loyihachi** - "DJIZAK PIRAMIDE CONSTRUCTION" MChJ
**Litsenziya** AL-001019. O'zbekiston Respublikasi Qurilish Vazirligi 2020.06.26
**Moliyalashtirish manbai** - Mahalliy budjet mablag'lari hisobidan.
**Bosh pudratchi** – Tender tanlovi asosida.
**Qurilish turi** Joriy ta'mirlash.
**Murojaat raqami:** № 74402

**1. Loyihalash uchun asos**

1.1. Jizzax viloyati Zomin tuman tibbiyot birlashmasi tomonidan 2022-yilda tasdiqlangan "Loyiha topshirig'i";

1.2. Jizzax viloyati Zomin tuman tibbiyot birlashmasi tomonidan 11.11.2022-yilda tasdiqlangan "Nuqsonlar dalolatnomasi";

1.3. Buyurtmachi tashkilot Jizzax viloyati Zomin tuman tibbiyot birlashmasi va loyiha tashkiloti "DJIZAK PIRAMIDE CONSTRUCTION" MChJ o'rtasida 20.11.2022-yilda tuzilgan №813777 - sonli shartnoma.

**2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar**

2.1. Tasdiqlangan nuqsonlar dalolatnomasi;

2.2. Ishchi chizmalar;

2.3. Smeta xujjatlari.

**3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni**

3.1. Smeta hujjatlari belgilangan tartibda tasdiqlangan "Loyihalash topshirig'i" va "Nuqsonlar dalolatnomasi" ga asoslanib ishlab chiqilgan.

3.2. Loyihaviy tadbirlar.

Smeta hujjatlari quyidagi ishlarni bajarish ko'zda tutilgan:

Deraza romlari olish, beton sindirish ishlari, MDF eshik va rengen xonalariga maxsus eshiklar o'rnatish.

**4. Loyihalanayotgan ob'ektning muhandislik ta'minoti:**

4.1. "Jizzax viloyati Zomin tuman tibbiyot birlashmasining MSKT va Angiografiya xonalarini joriy ta'mirlash" ob'ektida quyidagi muhandislik ta'minoti ishlari bajarilishi rejalashtirilgan:

Santexnika ishlari, ichki va tashqi elektr ishlari, MTU-100T (50Tx2) rusumli issiqlik qozoni o'rnatish, issiqlik va shamollatish tizimlarini ta'mirlash.

**5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.**

5.1. "Jizzax viloyati Zomin tuman tibbiyot birlashmasining MSKT va Angiografiya xonalarini joriy ta'mirlash" ob'ekti bo'yicha tayyorlangan smeta xujjatlarida bajariladigan ish turlari va hajmlari buyurtmachi va loyiha tashkiloti tomonidan o'rganib chiqilgan va tasdiqlangan;

5.2. Buyurtmachi smeta xujjatlarini tasdiqlashdan oldin barcha mutasaddi va tegishli tashkilotlar bilan kelishishi lozim.

**6. Ekspertiza natijalari.**

6.1. Smeta xujjatlari ekspertizaga buyurtmachining e'tirozlarisiz taqdim qilindi.

6.2. Ob'ektning qurilish narxi "Qurilish iqtisodiyoti instituti" MChJ tomonidan ishlab chiqilayotgan joriy narxdagi kataloglar (2022 yil 3-chorak) va amaldagi (haqiqiy, bozor sharoitlariga ko'ra) narxlarni hisobga olgan holda ishlab chiqilgan va ekspertizaga taqdim qilingan.

Smeta xujjatlarini ko'rib chiqish jarayonida quyidagi kamchiliklar aniqlandi:

a) Ba'zi bir qurilish materiallari narxi o'rtacha narxlardan baland qabul qilingan, ba'zi bir qurilish materiallari narxlari asoslanishi va ba'zi bir ish turlari uchun tanlangan smeta me'yorlariga aniqlik kiritilishiga, Ishchi quruvchilar mehnat sarfini aniqlashda 1kishi/soat ko'rsatkichi ijtimoiy sug'urtaga ajartma 12% bilan – **17167** so'm baland qabul qilinganligiga e'tiroz bildirildi (smeta xujjatlariga berilgan e'tiroz va takliflarga qaralsin).

b) Buyurtmachi tomonidan smeta qiymati QQS bilan buyurtmachi boshqa xarajatlarisiz – **587 782,903** ming so‘m taqdim etilgan.

Smeta hujjatlarida ko‘rsatilgan kamchiliklar bartaraf etilgandan so'ng, ya'ni ba'zi bir qurilish materiallari narxlari shakllanishi amaldagi joriy narxlar katalogi va bozor konyukturasiga asosan aniqlik kiritilishi, ishchi quruvchilar mehnat sarfini aniqlashda 1kishi/soat ko'rsatkichi ijtimoiy sug'urtaga ajartma 12% bilan 2022 y 3-chorak asosida qayta hisob-kitob qilinishi natijasida obekt baxosi QQS bilan birga QQS bilan – **88 655,828** ming so'mga kamaytirildi.

6.3. Lokal ekspert xulosa natijalarini xisobga olgan holda "**Jizzax viloyati Zomin tuman tibbiyot birlashmasining MSKT va Angiografiya xonalarini joriy ta'mirlash**" obekti bo'yicha ishlab chiqilgan smeta hujjatlarini kelgusida kelishish hamda tasdiqlash uchun buyurtmachining boshqa harajatlarisiz va QQS bilan umumiy miqdorda – **499 127,075** ming so'm tavsiya etiladi.

Shu jumladan:

– qurilish montaj ishlari xarajatlari – **305 631,341** ming so'm;

– uskuna (jixoz)lar narxi transport sarf-harajatlari bilan birgalikda – **127 007,757** ming so'm;

– qurilish vaqtida qurilish obektini sug‘urtalashga sarflangan xarajatlar – **1 384,445** ming so'm;

– qo'shimcha qiymat solig'i 15% – **65 103,532** ming so'mni tashkil etadi.

**Ta'kidlash joizki:**

1. Smeta hujjatlarida ishchi quruvchilarning oʻrtacha bir soatlik ish xaqi "Qurilish iqtisodiyoti instituti" MChJ chiqarayotgan 2022–yil 3-chorak katalog asosida **14 580,59 x 1,12 = 16 330,26** so'm ijtimoiy sugʻurtaga ajratma 12 % qabul qilingan. (Ijtimoiy sug'urtaga ajratma foizi pudratchining haqiqiy harajatlari bo'yicha buxgalteriya hujjatlari va bir soat uchun oʻrtacha ish haqi avvalgi 12 oy uchun statistika ma'lumotlari asosida  aniqlanadi).

– Smeta hujjatlarida nazarda tutilgan ish haqi boʻyicha xarajatlarni aniqlashda, qabul qilingan 1 kishi/soat **16 330,26** so'm (ijtimoiy sug'urtaga ajratma 12% bilan) va pudratchining "boshqa xarajatlari" bo'yicha xarajatlarni aniqlashda qabul qilingan 18,58% ko'rsatkich tavsiyaviydir, pudratchi bilan xarajatlarni hisob-kitob qilishda ushbu koʻrsatkichlar ShNQ4.01.16-09 bilan tartibga solingan holda olib borilishi tavsiya etiladi).

– Smeta hujjatlarida rengen xonalari uchun maxsus eshiklar narxlari SP OOO MADAD CO LTD prayst-varaqga va ba'zi bir uskunalar narxlari internet saytlari ma’lumotlariga tayanilib kiritilgan, kelgusida buyurtmachi va pudratchi oʻrtasida oʻzaro hisob-kitob qilishda ushbu tavsiyaviy narxlarni toʻgʻridan – to'g'ri qabul qilish tavsiya etilmaydi va ushbu narxni qabul qilishda yetqazib beruvchi tashkilotlarning narxlarining eng maqbullaridan olinishini buyurtmachi tashkilot zimmasida qoladi.

2. Smeta hujjatlarida nazarda tutilgan asosiy mashina – mexanizmlarni ekspluatatsiya qilishning 1 mash/soat narxlari, asosiy qurilish materiallari va uskuna (jixoz) larni xarid qilish tartibi belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq amalga oshirilishi va asoslovchi hujjatlarga tayanilishi lozim.

3. **Buyurtmachiga** loyiha hujjatlarini tasdiqlashdan oldin quyidagilarni qayta koʻrib chiqish tavsiya etiladi:

– Pudratchi boshqa xarajatlarining aniq sarfi;

– "Qurilishning bahosini shartnomaviy joriy narxlarda aniqlash qoidalari" ShNK 4.01.16-09 asosida qurilish materiallari (buyumlar, konstruksiyalar) va uskunalarning ishlab chiqaruvchi zavodlarning ulgurji narxlarini oʻz ichiga olgan hududiy bozorda haqiqatda shakllangan narxlari, shuningdek bevosita ishlab chiqaruvchilardan (yetkazib beruvchi), qurilish materiallari birja va yarmarkalarining byulletenlari, qurilish materiallari va uskunalari yetkazib beruvchi tashkilotlarning narxlarining eng maqbullaridan olinishini;

– Ish haqi xarajatlarining pudratchi tashkilotning oʻtgan 12 oydagi oʻrtacha oylik ish haqi darajasidan kelib chiqqan holda statistika ma’lumotlari asosida bir odam/soat ish haqidan olinganligi.

6.4. Yakuniy harajat buyurtmachi va pudratchi tomonidan qurilish tugagandan so'ng, haqiqiy (ijro hujjatlari) nazorat natijalari asosida aniqlanadi.

6.5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 11.06.2003–yildagi №261 qarori bilan tasdiqlangan "Qurilish ob'ektlari narxini joriy shartnoma narxlarida aniqlash tartibi to'g'risida vaqtinchalik qoidalar"ga va ShNK 4.01.16.09 ga binoan qurilishning narxi tavsiyaviydir. Tavsiya etilgan bahoni qabul qilish qarorini buyurtmachi va pudratchi birgalikda qabul qiladilar (ShNQ4.01.16-09, 6-bob. 6.4-bandi).

6.6. O'zbekiston Respublikasi Shaharsozlik kodeksi 4-bob 23,24,25-moddalari xamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar maxkamasining 17.09.2021 yildagi №579-sonli qarorining 1-ilova 3-bob 29-bandiga asosan "Ekspert tashkilotiga taqdim etilgan shaharsozlik xujjatlarining sifati, dastlabki ma'lumotlarning xaqqoniyligi va qabul qilingan loyiha yechimlari bo'yicha buyurtmachi xamda loyiha tashkiloti javobgardir".

6.7. Tasdiqlangan nuqson dalolatnomasi xaqqoniyligi va ishonchliligi uchun javobgarlik buyurtmachiga va loyihachi tashkilot zimmasiga yuklatiladi.

## 7. Xulosalar.

7.1. Ekspertiza natijalarini xisobga olgan xolda "**Jizzax viloyati Zomin tuman tibbiyot birlashmasining MSKT va Angiografiya xonalarini joriy ta'mirlash**" smeta xujjatlari kelgusida ko'rib chish va tasdiqlashga tavsiya etiladi.

**Bosh mutaxassis:** DJURAEV ANVAR LAPASOVICH